- uchinchidan, hamkorlik, kasbiy muammolarni birgalikda hal etish, maktabning taʼlimiy, tarbiyaviy, tashkiliy rivojlanishiga masʼuliyat, maktab va mahalliy hamjamiyat hayotida oʻz oʻrniga ega boʻlish.

Kasb standarti mohiyatining keng yoritilishi oʻqituvchini kasbiy rivojlantirish borasidagi juda koʻplab tadqiqotlar uchun asos boʻladi, ushbu ishda esa oʻtkazilayotgan tadqiqot mavzusi, maqsadi hamda vazifalaridan kelib chiqib kasb standartidagi 2-boʻlim 2-sohasi hamda 3-boʻlim 6-sohasi kengroq yoritildi.

Ikkinchi boʻlim “Taʼlim va tarbiya jarayonini boshqarish”, deb nomlangan va yuqorida rasmda keltirilgan beshta sohani qamrab olgan [4] .

*Birinchi soha.* Oʻquv jarayonini rejalashtirish – ushbu sohada oʻqituvchi davlat taʼlim standartlari va oʻquv dasturi doirasida faoliyatni rejalashtirishi; oʻqituvchi oʻquv dasturiga muvofiq oʻquv-uslubiy majmuani (dars rejasi, konspektlar, didaktik va tarqatma materiallar) ishlab chiqishiga oid kompetensiya standartlari va har biriga tegishli faoliyat koʻrsatkichlari/mehnat harakatlari belgilangan:

- oʻqituvchi davlat taʼlim standartlari va oʻquv dasturi doirasida faoliyatni rejalashtirishi uchun quyidagi mehnat harakatlarini, yaʼni: davlat taʼlim standartlari va oʻquv dasturlarining

maqsadlariga muvofiq oʻquv rejalarini ishlab chiqish; oʻquvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib oʻquv dasturlarini moslashtirish (agar kerak boʻlsa); oʻz faoliyatini fanlararo korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini rejalashtirishni amalga oshirishi zarur;

- oʻqituvchi oʻquv dasturiga muvofiq oʻquv-uslubiy majmuani (dars rejasi, konspektlar, didaktik materiallar) ishlab chiqishda esa: oʻquvchilar bilimini baholash natijasida olingan maʼlumotlarni inobatga olgan holda, darsning aniq va oʻlchamli maqsad va natijalarini belgilab, dars rejasini ishlab chiqadi; darsning maqsadlari, oʻquvchilarning yosh xususiyatlari va oʻzlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtirish, tegishli oʻquv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni; dars jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari integratsiyasini rejalashtiradi.

Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oʻqituvchilar uchun "taʼlim berishning zamonaviy nazariyalarini oʻzlashtirishni, pedagogik-psixologiyani tushunishni, taʼlim berishga kompetentlilik hamda shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvlarni egallash" va "xalq taʼlimini boshqarishda strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllarini yaratish, innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, sohada xalqaro tajribadan kelib chiqib, ilgʻor yutuqlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish" [1] dolzarb vazifalardan biri sifatida ajratib koʻrsatilishi bejiz emas.

Rejalashtirish – milliy iqtisodiyotning turli darajalarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va boshqarish shakllari majmuyidir [7; 370-b.]. Ushbu taʼrifdan kelib chiqsak, rejalashtirish oʻqituvchining butun boshli faoliyatiga tegishli boʻlgan, boshqa kompetensiya sohalarining muvaffaqiyatli namoyon boʻlishida asos boʻladigan eng muhim kasbiy kompetensiyasidir. U nafaqat oʻquv jarayonini tartibli oʻtkazishga, balki oʻz-oʻzini rivojlantirishning shaxsiy-kasbiy omillarida ham ahamiyatlidir.

Oʻquv jarayonini rejalashtirishda oʻqituvchining metodik kompetentliligi yuzaga chiqadi. Fanlar boʻyicha kalendar-mavzu rejasi tegishli vakolatga ega tashkilotlar tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi, demak, oʻqituvchiga rejaning asosiy maqsadi, vazifalari maʼlum, bu esa pedagogga oʻquv predmetini batafsil rejalashtirish uchun yaxshi manbadir. Jumladan, bunda oʻquv jarayonidagi oʻz faoliyatini samarali rejalashtirish uchun mavzularni vaqt jihatdan taqsimlash tartibini bilish yetarli emas. Ushbu tartibni darsning turli shakllar va tiplarida, avval qoʻllab koʻrish, eng muhimi, fandagi har bir mavzuning oʻquv maqsadini aniqlashtirish, vazifalarini belgilash, zaruriy usullarni toʻgʻri tanlash, oʻquvchida oʻrganayotgan mavzusi uning qaysi hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilayotganini, daxldorlik, amaliyotda qoʻllay olish kabi savollariga javobni hozirlash oʻqituvchining mazmun uzatish jarayonini, dars vaqtini toʻgʻri rejalashtirishida namoyon boʻladi. Shuningdek, har bir mavzu boʻyicha dars daqiqalari mazmuni aks etgan texnologik xaritani ijodiy tuza olishi, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, baholash rubrikalarini darajama-daraja konkret ishlab chiqishi, nazariya va amaliyot birligida integrativ yondashuvni taʼminlashi oʻqituvchining bu soha kompetensiyasidagi faoliyat koʻrsatkichlarini bajarganini tasdiqlaydi.

*Ikkinchi soha.* Kasb standartining 2-boʻlimidagi 2-soha "Taʼlim samaradorligini taʼminlash (taʼlim dasturlarini amalga oshirish)", deb nomlanadi [4]. Mazkur sohadagi kompetensiyaviy talablar yuqorida tahlil qilingan 1-sohaning davomi, toʻldiruvchisidir, yaʼni rejalashtirishning toʻgʻri bajarilgani uning jarayonda muvaffaqiyatli qoʻllangani bilan izohlanadi.

Oʻqituvchi oʻquv jarayonini samarali tashkil qilishi uchun rejalashtirishda aniqlagan oʻquv maqsadiga yetishda belgilangan vazifalarni oʻquvchilarga yetkazishi, ushbu vazifalarni bajarishda uning qaysi talablariga javob berish baholashda yetakchi rol oʻynashini tushuntirib oʻtishi lozim. Masalan, dars mashgʻuloti yangi mavzuni oʻtishga moʻljallangan boʻlsa, kichik maʼruza va unga tegishli test boʻlishi, yoki guruhli ishlash tashkil etilib, yangi mazmun oʻquvchilar tomonidan mustaqil oʻzlashtirishga qaratilganligi singari. Umuman olganda, standartning 2-sohasini jadvalda mualliflik talqinida quyidagicha tahlil qilish mumkin (1-jadval):

**1-jadval.**

**Umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻqituvchisi kasb standartining 2-soha tahlili**

| **2-soha** | **Taʼlim samaradorligini taʼminlash (taʼlim dasturlarini amalga oshirish)** |
|---|---|
| 2.1-standart va koʻrsatkichlar mazmuni | ***Oʻqituvchi oʻquv jarayonini samarali tashkil qiladi*** |
| | *Dars maqsadlari asosida oʻquvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilaydi:* |
| | - mashgʻulot avvalida aniq, sodda va ravon uslubda darsning maqsadi yetkaziladi; |
| | - baholash tizimini tushuntiradi; |
| | - bajariladigan vazifalar ketma-ketligi va mohiyati bilan tanishtiradi; |
| | - ishchi muhitni yaratish maqsadida oʻquvchilardan dars jarayonidagi tushuntirishlar qanday taʼsir qilganligini aniqlab oladi. |
| | *Dars mavzusiga mos keladigan namoyish va tarqatma materiallaridan foydalanadi:* |
| | - oʻquv maqsadi va dars tipiga koʻra, koʻrgazmali va tarqatma materiallarni tayyorlaydi; |
| | - koʻrgazma materiallarini darsning barcha elementlariga: mavzu, maqsad, vazifa, faoliyat va baholashga, tarbiyaviy jihatdan milliy mentalitetga mosligini taʼminlaydi; |
| | - mazmunan oʻquvchining yosh va individual xususiyatlariga javob berishini rejalashtiradi; |
| | - namoyish materiali aniq koʻrinishga ega boʻlishi va oʻquvchining bor diqqatini koʻrgazmali qurolga qaratishga erishadi. |
| | *Darsda vaqtdan oqilona foydalanadi:* |
| | - darsning mantiqiy algoritmi, yaʼni egiluvchan, tizimli rejasi tuziladi; |
| | - vaqt taqsimotida oʻquvchilarning tayyorgarlik darajasi, salohiyati, mustaqilligi, darsning har bir qadamini batafsil bayon etishni inobatga oladi; |
| | - amalda rejaning ishlash surʼatini kuzatadi va yanada takomillashtirib boradi. |
| | *Taʼlim jarayonini qoʻllab-quvvatlash va taʼlimiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanadi:* |

| | |
|---|---|
| | - oʻzining texnologik kompetentligini rivojlantirib, oʻquvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirib boradi; |
| | - oʻquvchining yosh xususiyatlariga (SanPin talablariga rioya qilgan) mos daqiqalarda AKTdan foydalanib darsni tashkil qiladi. |
| | *Oʻquvchilar bilimini baholash natijasida olingan bilimlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarining samaradorligini tahlil qiladi.* |
| 2.2-standart va koʻrsatkichlar mazmuni | ***Pedagog oʻquv maqsadlari va oʻquvchilarning yoshi xususiyatlariga mos oʻqitish usullari va yondashuvlarini tanlaydi va qoʻllaydi*** |
| | *Oʻqitishning faol usullaridan foydalanadi (frontal ta'lim ustun boʻla olmaydi):* |
| | - faollashtiruvchi usullarni ta'limiy maqsadga yoʻnaltiradi; |
| | - vaziyatlarga yechim topishga, guruhga boʻlish, izlanish, mustaqil ishlash, muammoni oʻrganish, jarayonda oʻqish, savollar berish, muhokama qilish, axborotni qidirishga imkon yaratadi; |
| | - vaqtni toʻgʻri boshqaradi. |
| | *Umumiy oʻrta ta'limning ta'lim standartlarida belgilangan oʻquvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan usullardan foydalanadi:* |
| | - oʻquvchilarda tayanch kompetensiyalarni va hayotiy koʻnikmalarni turli usullarda oʻqitish bilan rivojlantirishi koʻzda tutilgan elementlari, vositalari orqali shakllantiradi (masalan: muammoga, loyihaga, shaxsga, jarayonga, natijaga asoslangan oʻqitish). |
| | *Oʻquvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etadi:* |
| | - oʻqituvchi loyihaga asoslangan oʻqitish boʻyicha trenerlik kursida oʻqiydi; |
| | - oʻquvchilarni birgalikda guruhlarda loyiha bajarishga oʻrgatadi va ushbu yondashuvda muammoga, tadqiqotchilikka, izlanishga asoslangan oʻqitish usullarini tizimlashtiradi. |
| | *Oʻquvchilarga metakognitiv strategiyani oʻrgatishda turli yondashuvlardan, jumladan, rejalashtirish, nazorat qilish va oʻz-oʻzini baholash koʻnikmalaridan foydalanadi:* |
| | - oʻquvchini oʻquv faoliyatini mustaqil bajarilishini ta'minlovchi maqsad qoʻyish, natija belgilash, tanqidiy qikrlash, kreativlik, qiyoslash, anglash, bashoratlash, oraliq qadamlar algoritmini tuzish, refleksiyalash kabi kognitiv strategiyalarga oʻrgatadi. |
| 2.3-standart va koʻrsatkichlar mazmuni | ***Oʻqituvchi oʻquvchilarni jarayonga faol jalb qiladi, ularda oʻqishga motivatsiyani yaratadi*** |
| | *Oʻquvchilarga individual ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, oʻz vaqtida differensial yordam beradi:* |
| | - oʻqituvchi darslarida shaxsga asoslangan oʻqitishning element va vositalaridan unumli foydalanadi |

| | |
|---|---|
| | - sinfning qiziqish va ehtiyojlarini oʻrganadi, ularga mos tabaqalashgan topshiriqlar yaratish kabi usullardan foydalanadi. |
| | *Dars mavzusini amaliyot bilan (hayotdagi misollar yordamida) bogʻliqligini koʻrsatadi:* |
| | - oʻqituvchi doimiy ravishda nazariyani amaliyot bilan bogʻlaydi, maktabdagi fanlar oʻquvchini hayotga oʻrgatuvchi fan ekanligini singdirib borad; |
| | - oʻquvchilarda har bir fan hayotida nima uchun kerakligi haqidagi savolga aniq javobni shakllantiradi, atrofdagi voqelikdan bilimlar manbayi sifatida foydalanishga oʻrgatadi. |
| | *Dars davomida har bir oʻquvchiga oʻz gʻoyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini beradi:* |
| | - sinfda kollaborativlikni ta'minlovchi muhit yaratadi, yoʻnaltiruvchi savollar orqali kreativlikka oʻrgatadi; |
| | - bevosita va bilvosita muloqotning turli vaziyatlari orqali oʻquvchining kommunikativ kompetentliligini rivojlantiradi. |
| | *Oʻquvchilar darsga faol qatnashishini motivatsiyalashda ularning shaxsiy qiziqishlaridan foydalanadi.* |
| | *Oʻquvchilarni darsga qiziqtirishda turli usullardan foydalanadi:* |
| | - oʻquvchi motivatsiyasini oshirishga qaratilgan barcha usullardan foydalanadi va ta'lim jarayonida ishonch, sabr-toqat, xavfsizlik, erkinlik va mas'uliyatni shakllantiruvchi psixologik muhitni yaratadi. |
| | *Sinfda samarali muloqotni ta'minlaydi:* |
| | - oʻqituvchi oʻquvchida kompetentlilik, muomala madaniyati rivojlanishi uchun namuna boʻladi. |

Standartning yuqorida izohi keltirilgan 2-sohasi oʻqituvchi faoliyatida oʻz-oʻzini rivojlantirishning natijasi sifatida namoyon boʻladi, degan xulosa bilan uni batafsilroq izohlash lozim koʻrildi.

Uchinchi soha. 2-boʻlimning 3-sohasi "Oʻzlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish", deb nomlangan [4]. Ushbu qism: oʻqituvchi zamonaviy nazariyalarni bilishi va qoʻllashi; oʻqituvchi muntazam ravishda oʻquvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholashi va tahlil qilishi; oʻqituvchi oʻquvchilarga ularning yutuqlari toʻgʻrisida ma'lumotni taqdim etishi, ularni oʻqishni davom ettirishga va rivojlanishga motivlashtirishi; oʻqituvchi oʻquvchilar oʻqishda duch keladigan qiyinchiliklarni kuzatishi va tavsiflashi, zarurat paytida tegishli sohadagi mutaxassisga murojaat qilishi kabi kompetensiya standartlari va oʻnta faoliyat koʻrsatkichlari/ mehnat harakatlarini oʻz ichiga oladi.

Aslida baholashning diagnostik, formativ, summativ kabi usullari mavjud boʻlib, bular shakl va xususiyatlariga, ifodalanish mohiyatiga koʻra, bir necha xil namoyon boʻladi. Har qanday baholash turi oʻtkazilganda, uning mezonlari aniq va tushunarli boʻlishi yoki oʻqituvchining baholash rubrikalarini tushuntirishga doir xatti-harakatni doimiy bajarishi muhim, chunki baholash oʻzlashtirilganlikni aniqlaydi, oʻquvchida motivni barqarorlashtiradi, qayta aloqani vujudga keltiradi. Kamchiliklarni bartaraf etishga, yutuqlarini esa oshirib borishga koʻmaklashadi.

4-soha. Kasb standartining 4-sohasi “Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish”, deb nomlanib, ikkita: “Oʻqituvchi tarbiyaviy ta’lim oluvchilarning rivojlanishiga va ijtimoiy me’yorlar shakllanishiga koʻmaklashuvchi turli shakllarda tashkil etadi” va “Oʻqituvchi tarbiyaviy faoliyatni qadriyatlarni rivojlantirib va tarbiyaviy ishlarni interfaol shakl va usullarini qoʻllab olib boradi” [4], kabi kompetensiya standartlarini oʻz ichiga oluvchi katta mazmunni oʻzida ifodalagan.

Ushbu soha oʻqituvchidan nafaqat fan egasi boʻlishni, balki oʻquvchining tarbiyaviy ehtiyojlarini aniqlay olish, emotsional-qadriyatli sohasini rivojlantirish, odob-axloq qoidalariga oʻrgatish, oʻyin, oʻquv-tadqiqot hamda boʻsh vaqtlarini samarali tashkil etish, tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv usullarini qoʻllay bilish, oʻquvchilarning dini, jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini hisobga olish, oʻquvchilarni volontyorlik ishlariga oʻrgatish, ziddiyatli vaziyatlarda pisxologik bilimlarga ega boʻlish, ijobiy muhit yaratish, oʻz bagʻrikengligi namunasida oʻquvchilarda bagʻrikenglik, sabr-toqat, qat’iyat, axloqiy me’yorlar va hayotga tayyorgarlik koʻnikmalarini shakllantirish, kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sogʻlom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish mazmunidagi faoliyat koʻrsatkichlari/mehnat harkatlarini amalga oshirishni talab qiladi.

5-soha. 2-boʻlimning yakuniy sohasi sanaladi hamda “Xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish va ta’minlash” [4], deb nomlanadi. Bunda oʻqituvchining ijtimoiy, psixologik, innovatsion, integratsion kompetentliligi muhim rol oʻynaydi. Ushbu soha “Oʻqituvchi barcha oʻquvchilar uchun psixologik va jismoniy xavfsiz muhitni yaratadi”, “Pedagog sinfni samarali boshqaradi va ta’limiy muhitni oʻquvchilar ehtiyojlariga moslashtiradi”, “Pedagog oʻquvchilarda fuqarolik kompetensiyalar va mediasavodxonlikni shakllantiradi” kabi kompetensiya standartlarini qamrab olgan.

Bu soha standartlari mazmunining qisqa ta’riflaridan kelib chiqsak, oʻqituvchi oʻquvchi uchun sinfda mehr va ishonch zanjirini, jinsi, millati, tili, dini, ijtimoiy holati yoki alohida ehtiyojlaridan qat’i nazar tenglik imkoniyati asosida inklyuziv ta’lim muhitini yaratish, nizoli vaziyatni yechish, shuningdek, oʻzi uchun xavfsizlik qoidalariga rioya qilish mohiyatini tushuntirish, ehtiyojga mos aniqlikda sinfni boshqarish, ta’limni individuallashtirish, odob-axloq qoidalariga oʻquvchilarning rioya etishlarini ta’minlash, fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirish kabi mehnat harakatlarini amalga oshirishi zarurligi ta’kidlangan.

Kasb standartining uchinchi boʻlimi “Kasbiy rivojlanish va hamkorlik”, deb nomlangan va standart mazmuni davomiyligidagi ikkita sohani oʻzida ifodalagan (2-jadval).

**2-jadval.**

**Umumiy oʻrta ta’lim maktab oʻqituvchisi kasb standartining 6-soha tahlili**

| 6-soha | Oʻz-oʻzini rivojlantirish va kasbiy oʻsish |
|---|---|
| **6.1-standart va koʻrsatkichlar mazmuni** | ***Oʻqituvchi butun hayot davomida oʻqishning muhimligini anglaydi va kasbiy rivojlanish uchun turli imkoniyatlardan foydalanadi*** |
| | *Muntazam malaka oshirish kurslaridan oʻtadi:* |
| | - oflayn va onlayn shaklda uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursida oʻqiydi hamda tegishli sertifikat oladi; |
| | - oʻz kasbiy darajasini oshirib borish majburiyatini his qiladi; |

| | |
|---|---|
| | - fandagi yangiliklar va dolzarb muammoga bagʻishlangan qisqa va uzoq muddatli kurslarda taʼlim oladi. |
| | *Seminar va treninglarda, shuningdek, kasbiy rivojlanishni taʼminlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashadi:* |
| | - oʻz ehtiyojlariga mos ravishda, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar tanlaydi; |
| | - zamonaviy tendensiyalar, kasb standartlariga nisbatan refleksiyasi, kasbiy malaka darajasini anglaydi. |
| | *Maqsadi ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat boʻlgan maktabning "uslubiy kengashlar"ida qatnashadi:* |
| | - uslubiy birlashma va metodik kengash ishida bevosita ishtirok etadi; |
| | - oʻz kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, hamkasbiga metodik yordam koʻrsatadi; |
| | - metodik birlashma doirasidagi hamkorlikda uslubiy ishlarni bajaradi, turli usullar, vositalar, shakllar, mezonlar yaratadi. |
| **6.2-standart va koʻrsatkichlar mazmuni** | ***Oʻqituvchi hamskasblari bilan hamkorlikda tajriba almashish va oʻzining kasbiy mahoratini oshirish uchun ishlaydi*** |
| | *Oʻzaro darslarda qatnashadi, ularni tahlil qiladi, undan oʻzining kasbiy faoliyatida foydalanadi:* |
| | - oʻz amaliyoti bilan bogʻliq xulosalar chiqarishi uchun oʻqituvchi oʻz hamkasbining darslarini kuzatadi; |
| | - maktabda ustoz-shogird anʼanasida faol boʻlib, yuqori tajribaga ega boʻlgan oʻqituvchilarning mahoratini oʻrganadi, amaliyotida qoʻllaydi; |
| | - oʻqitish amaliyotini yaxshilash imkonini beruvchi qayta aloqani taqdim etadi. |
| | *Oʻz tajribasini namoyish etish uchun ochiq darslarga tayyorgarlik koʻradi va oʻtkazadi:* |
| | - oʻqituvchi ochiq darsga nazariy, amaliy-metodik, psixologik jihatdan, shuningdek, ochiq darsdan keyingi muhokamalar(tanqidiy fikrlash)ga va bildirilgan fikrlarni qabul qilishga oʻzini hozirlaydi, tayyorgarlik koʻradi; |
| | - darsdan keyin hamkasblariga oʻz maqsadini, dars oʻtish usullarining mantiqiy ketma-ketligini dalillaydi. |
| **6.3-standart va koʻrsatkichlar mazmuni** | ***Oʻqituvchi oʻz kasbiy rivojlanishini, oʻz ishini oʻzi tahlil qilish va oʻzi baholash asosida rejalashtiradi va amalga oshiradi*** |
| | *Doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qoʻllaydi:* |
| | - oʻqituvchi oʻz faniga doir ilmiy, uslubiy va boshqa adabiyotlarni oʻrganadi, ishonchli manbalarni tanlaydi, tahlil qiladi, zamonaviy oʻqitish nazariyasi va yangi tendensiyalar bilan tanishadi; |

| | |
|---|---|
| | - olgan ma'lumotlarini qayta ishlaydi, o'rgangan ilg'or tajriba usullarini, dasturiy ta'minot, metodik innovatsiyalarni o'z amaliyotida qo'llab, tegishli xulosalar chiqarib boradi; |
| | - bugungi ta'lim muhitini fanlararo integrativlikda tashkil etish zaruriyatidan kelib chiqib kundalik faoliyatida, ta'lim natijalarining samaradorligini oshirishda foydalanadi. |
| | *O'zining ta'lim faoliyatini (kuchli va zaif tomonlarini) yetarlicha baholaydi va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay oladi:* |
| | - o'qituvchi o'z-o'zini diagnostika qilish orqali kasbiy qiyinchiliklarining sabablarini muntazam aniqlab boradi; |
| | - o'qituvchining kasb standarti talablari bo'yicha o'zini tahlil qilib boradi, o'z-o'zini baholash xaritalarini izlaydi, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni tashxislash ishlarini olib boradi. |
| | *Mustaqil ta'lim rejasini va uni amalga oshirgandan so'ng hisobotini tuzadi:* |
| | - har bir o'qituvchida mustaqil ta'lim rejasining mavjud bo'lishi muhim ekanligini inobatga olib, o'zining individual shaxsiy-kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzadi; |
| | - rejaning o'z yo'nalishi va faoliyatiga mos bo'lishini ta'minlaydi, maqsad, vazifa aniq hamda mos ravishda kutiladigan natijalarni belgilaydi, o'z-o'zini takomillashtirishdagi turli shakllarning algoritmik harakatlarini tuzadi. |
| | *O'zining ish amaliyotida kerakli o'zgarishlarni amalga oshiradi:* |
| | - o'qituvchi har bir darsi davomida o'quvchilar bilan qayta aloqani, ularda refleksiyani shakllantirishning yo'llarini izlaydi, o'z darsini va uning o'quvchilarga ta'sir darajasini kuzatadi; |
| | - doimiy tajribasini o'rganish, o'z natijalarini tahlili qilish asnosida o'quvchilarni motivatsiyalash usullariga o'zgartirishlar kiritib boradi; ular bilan ishlashning turli shakllarini (kichik guruhlarda, juftliklarda ishlash v.h.) qo'llaydi; |
| | - o'quvchini formativ baholashga qaratilgan turli rubrikalar ishlab chiqadi, o'quvchilar muhokamasiga o'z-o'zini baholash jrayonini kiritadi. |

Kompetensiyaning ushbu "O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish" sohasi tadqiqotimizda belgilangan kasb standartini amaliyotda qo'llash uchun asosiy mazmun va yo'nalishni ifodalaganligi sababli kengroq izohlash va unga munosabat bildirishga urindik.

7-soha. Kasb standartning 7-sohasi "Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rinini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik", deb nomlangan [4]. Xususan, "O'qituvchi bolalar rivojlanishi manfaatida ota-onalarni maktab bilan hamkorlik qilishning turli shakllariga jalb qiladi", "O'qituvchi o'quv tarbiyaviy masalalarni bajarish maqsadida hamkasblari va mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi" kabi kompetensiya standartlarini, shu bilan birga o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga, sinf va maktab hayotiga jalb qilish, tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikda o'quvchining individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish va natijalarga erishish vazifalarini amalga oshirish,

oʻquvchilarni hayotga tayyorlashda tarbiyaviy muammolarni hal qilishda boshqa pedagog xodimlar, mutaxassislar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish singari faoliyat koʻrsatkichlari/mehnat harakatlari taqdim qilingan.

**Xulosa.** Kasb standartida belgilangan har bir mehnat vazifasi mehnat harakatlari, zarur koʻnikmalar, zarur bilimlar va boshqa tavsiflar oʻziga xos ma’no-mazmunga ega boʻlgan xarakteristikani tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, kasb standartining amaliyotga kiritilishi va natijadorligi belgilangan kompetensiyalarning oʻqituvchi kasbiy faoliyatida qay darajada namoyon boʻlishi bilan bogʻliq. Ushbu jarayonda pedagog xodim oʻzida mavjud bilim, malaka, tajriba va amaliyotni nafaqat integratsiyalashi, balki kasb standartlari talablariga javob berish uchun zaruriy koʻnikmalarni egallab borishi zarur.

## Адабиётлар/Литература/References:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF–5712-son Farmoni. – QHMMB, 29.04.2019. 06/19/5712/3034-son.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va koʻnikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari toʻgʻrisida”gi 287-son Qarori. – QHMMB, 16.05.2020. 09/20/287/0595-son.
3. Международная стандартная классификация образования МСКО-2011. – UIS, P.O. Box 6128, Succursale Centre-Ville Montreal, Quebec H3C 3J7 Canada, 2013. – 89 с.
4. Umumiy oʻrta ta’lim maktab oʻqituvchisi kasb standarti. Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yil 8-fevraldagi 43-IC-son buyrugʻi (R.003.043.0964/B-21 raqami bilan roʻyxatga olingan).
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
6. Umumiy oʻrta ta’lim maktab oʻqituvchisi faoliyatida kasbiy standartni qoʻllash // Oʻqituvchi va uslubiyatchilar uchun qoʻllanma. Mualliflar jamoasi. – T., 2022. – 131 b.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 3-jild / Tahrir hay’ati: T.Mirzayev va b.; OʻzR FA Til va adabiyot instituti. – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 688 b.
8. Фоменко С.Л. Научно-методическое обеспечение становления педагогического коллектива как субъекта реализации компетентностной модели образования: теория и практика. – М.: “АПК и ППРО”, 2011. – 246 с.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 7 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).